O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY- SIYOSIY
FANLAR FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi:
№ БД-60310400
2024 yil “10” 14

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____
R.I.Xalmuradov
2024 yil “__”_____

“DIN SOTSIOLOGIYASI”

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot;
Ta’lim sohasi:	310000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar;
Ta’lim yo‘nalishi:	60310400 – Sotsiologiya;

Samarqand-2024

Fan/modul kodi DIS 1706	O‘quv yili 2027-2028	Semestr 7	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili- O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2 soat

	Fan nomi	Auditoria mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami:
1.	Din sotsiologiyasi	78	102	180

Fanning maqsadi (FM)	
1	**Fanni o‘qitishdan maqsad va vazifalari** - talabani ushbu fan bo‘yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarida ijtimoiy institutlar haqidagi ma’lumotlardan foydalana olish bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilishdir. «Din sotsiologiyasi» fani o’qitilishi davomida quyidagilarni amalga oshirilishini talab etadi: «Din sotsiologiyasi » fan sifatida rivojlanishi bo’yicha chet el hamda mahalliy tajribani o’zlashtirish; Din va jamiyat integratsiyasi, dinning umumiylik va xususiylik jihatlaridagi sotsiologik talqini, din va sotsial birdamlik, dinning struktur-funksional tahlili, din va sotsial o’zgarishlar, din va sotsial konflektlar, neoevolyutsionizm, dinning sotsial funksiyalari, G’arbiy Evropa sotsial tafakkurida dinga bo’lgan munosabatlar, din va ijtimoiy barqarorlik. hamda uslubiy asoslarini o’rganish; ijtimoiy ishda tadqiqotchilik loyihasini yozish va rasmiylashtirish; ijtimoiy ishchilarni tayyorlashda ta’limiy dastur va o’quv jarayonini tashkillashtirish uslubiyotini o’rganish; ijtimoiy ishning samaradorligi (nazariy uslubiy jihati) haqidagi bilimlarni boyitish.;

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari)	
II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg’ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Din sotsiologiyasi fan sifatida** Kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichlari. predmeti va vazifalari, axborot. Ma’lumotlar va ularning turlari. din sotsiologiyasining mavzusi, jamiyatning asos shakllari va dinning tashqi ko‘rinishlari bilan ijtimoiy jarayonlar, ularning tuzilish va qonunlaridan iborat ekan. Boshqacha qilib aytganda, bu ilm sohasi, tarix bo‘yicha xususiy va mushohadaga suyanuvchi din va jamiyat tadqiqotlarini, dinning ijtimoiy hayotdagi ko‘rinishlarini o‘rganadi.
M2	**Din sotsiologiyasi shakillanishining asoslarini** O’rganish boshqa fanlar bilan o’zaro aloqadorligi shakllanish jarayonlari o’rganilib boriladi, din-jamiyat munosabatlarini, bu munosabatlar ortidan kelib chiquvchi voqea-hodisalarni o‘rganadi. Shu tufayli bu ilm sohasi ijtimoiy diniy muassasalarni, dinning davlat, xalq, oilaga nisbatan munosabatini, din sohasida yuzaga keluvchi ijtimoiy voqea- hodisalarni, turli din jamoalarining jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarini asosiy mavzu sifatida tadqiq qiladi.
M3	**Jahon dinlari Buddaviylik, Xristianlik** Jahon dinlari haqida ma’lumot olish, buddaviylik dini, xristianlik dini haqida ma’lumotlarga ega bo’lish. Jahon dinlari - jahondagi juda ko‘p xalqlar e’tiqod qiladigan buddizm, xristianlik va islomga nisbatan ishlatiladigan termin. Jahon dinlari jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida buyuk tarixiy burilishlar, bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o‘tish davrlarida vujudga kelgan. Jahon dinlari tarixiy jarayonda jahon imperiyalari, davlatlar tarkib topayotgan paytlarda paydo bo‘lgan.
M4	**Islom dini ta’limoti ISLOM** Jahonda uch din (buddaviylik, xristianlik bilan bir qatorda)dan biri. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” deb ataladi. Islomning eng asosiy talabi hisoblangan kalimai shahodatda “La ilaha illallohu Muhammadun Rusul-Alloh” (Allohdan o‘zga iloh, Muhammad uning payg‘ambaridir), deb uqtiradi. Qur’oni Karimda Allohning yagonaligi va buyukligi juda ko‘p bor Qur’oni Karimda ta’kidlanadi.
M5	**Dinning sotsiologik nazariyalari** Ilm sohasi, tarix bo‘yicha xususiy va mushohadaga suyanuvchi din va jamiyat tadqiqotlarini, dinning ijtimoiy hayotdagi ko‘rinishlarini o‘rganadi. Din sotsiologiyasi, bir tomondan jamiyat, bir tomondan diniy ilmlarga tayanadi; bu ikki asos ustida yakdillikni keltirib chiqarishga harakat qiladi.
M6	**Din sotsiologiyasining fanlar tizimidagi o’rni** Dinni tushunish uchun san’at, musiqa yoki adabiyot kabi hissiy qabul qilinadigan omillarni faraz qilish talab etiladi. Chunki bu orqali bir inson qalbida chuqur o‘rnashgan e’tiqod tuyg‘usi, boshqa bir insonda pastroq darajada aks etishini tushunish mumkin bo‘ladi.
M7	**Din sotsiologiyasi faning tadqiqot metodlari** Shaxs dindorligi strukturasi yuzasidan olib borilgan yana bir salmoqli tadqiqot Tuva Respublikasida istiqomat qiluvchi tub axolining dindorlik va diniy e’tiqodini o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash yuzasidan D.G. Suvakpit tomonidan tashkil etilgan.
M8	**Din va boshqa sotsial institutlarning munosabati sotsial institut** Sotsiologiyada dolzarb masalalarni qamrab oladi. Institut tushunchasi aslida sotsiologiya faniga huquqshunoslikdan o’tgan bo’lib, u lotincha «institutum» so’zidan olingan va sotsiologik adabiyotlarda muassasa, o’rnatish, belgilash hamda tartiblash kabi ma’nolarini ifodalaydi

M9	**Din va stratifakatsion jarayonlar** Dinning mohiyatini anglash unga xos xususiyalarning tizimli taxdil qilinishi bilan uzviy bog'liq. Shu ma'noda diniy dunyoqarash, ontologiya, gnoseologiya, tafakkur va tilning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etish, bu borada mavjud bo'lgan qarashlar va yondashuvlarda yakdillika erishish ham din falsafasining muhim muammolaridan hisoblanadi.
M10	**Milliy mentalitet va din** Milliy mentalitet (lotincha mens – aql, tafakkur, fikrlash tarzi) – milliy ong va faoliyat xarakterini ifodalovchi tushuncha. Milliy mentalitet millatning an'analari, madaniyati, ijtimoiy tuzilmasi va turmush tarzi asosida shakllanadi va o'z navbatida milliy an'analar, madaniyat hamda turmush tarziga aks ta'sir ko'rsatadi. Milliy mentalitetni tashkil etuvchi komponentlar ongsiz ravishda shakllanadi hamda ajdodlardan avlodlarga o'tib boradi.
M11	**Sekulyarizatsiya jarayonlari** Sekulyarizatsiya (lotincha. zeasikpz-dunyoviylik)- Uyg'onish davrida Yevropada keng tarqalgan qarash bo'lib ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, inson ongi va faoliyatida dunyoviylik ta'sirining kuchayib borish jarayonini ifoda etadi. Rim imperiyasi va o'rta aslarda Yevropada cherkovning yakka hukmronligiga qarshi shakllangan bo'lib, davlat bilan cherkovning bir-biridan ajratilishi, diniy tashkilot faoliyat doiralarining qisqartirilishi, S.ga xos xususiyatlardir.
M12	**Zamonaviy o'zbek jamiyati hayotida din institutini o'rni** Jamiyat rivojlanishi Schellning aytgani kabi huquqiy tizimga qadamba qadam yondashuviga ham bog`liq. Bunda shaxs yashab turgan mamlakatida o`rnatilgan tartib qoidalarga so`zsiz bo`ysunishi ham muhim ahamiyatga ega jihatlardan biridir, diniy kitoblarda ham bu borada chaqiruvlar va tushuntirishlar mavjuddir.
M13	**O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan integratsiyalashuv jarayonida din omilining o'rni** O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab uning rahbariyati oldida dinga bo'lgan munosabatni aniq va prinsipial ravishda belgilab olish zarurati tug'ildi. O'sha davrda davlatning dinga bo'lgan yangicha yondashuvi O'zbekiston rahbariyati tomonidan ishonchli tarzda belgilab berildi va qonunchilikda o'z ifodasini topdi. Jumladan, O'zbekistonda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar Konstitutsiyamizning bir necha moddalarida mustahkamlandi.
M14	**Din va ijtimoiy birdamlik nazariyasi** Davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi. ..
M15	**Dinlararo bag'rikenglik va totuvlik jamiyat barqaror rivojining kafolati** O'zbekistonda davlat va din munosabatlarining yana bir asosiy xususiyati bu dinning siyosatga aralashmasligidir. Zero, har qanday dinning birinchi galdagi vazifasi insonlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda ibodat va marosimlar bilan bog'liq masalalarni tartibga solishdir.
M16	**Globallashuv sharoitlarida din institutining ahamiyatini oshishi** Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog'langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o'zgartirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Transmilliylashtirish va mintaqaviylashtirish asosida iqtisodiyotning chambarchas bog'liqligi hisoblanadi.
M17	**Din ijtimoiy hodisa sifatida** Dinning mohiyati va jamiyat hayotida tutgan o'rni ilohiyot va fanda turlicha talqin etiladi. Ilohiyotshunoslar fikricha – din xudo tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy qilinishi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. U azaldan insonning xudo bilan aloqa qilish ehtiyojidir.
M18	**Din va san'at** Katta avlod vakillari tomonidan hayotiy tajribani yosh avlodga uzatish, yosh avlod vakillari tomonidan katta avlod me'rosini o'zlashtirib olish, ularni yanada boyitish va, o'z navbatida, keyingi avlod vakillariga uzatish hamma vaqt ham "silliq" kechavermaydi. Bu o'rinda, turli zamon, davr, yosh vakillarining o'zaro munosabatlarida tushunmovchiliklar, kelishmovchiliklar yuzaga kelib turadi
M19	**Diniy marosimlarning ijtimoiy hayotdagi roli.** Insoniyat tarixidan yaxshi bilamizki , dunyoning hech bir mintaqasi xalqi ma'lum bir din va e'tiqodlar tizimi siz o'z shaxsiy va ijtimoiy hayotini tasavvur qila olmagan. Tarixiy davrning barcha bosqichlarida jamiyatning asosiy bo'g'inlari o'z faoliyatlarini yuritish uchun u yoki bu diniy e'tiqod tamoyillariga tayanganlar

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

S1	Din sotsiologiyasi fan sifatida
S2	Din sotsiologiyasi shakillanishining asoslari
S3	Jahon dinlari (Buddaviylik, Xristianlik)
S4	Islom dini ta'limoti
S5	Dinning sotsiologik nazariyalari
S6	Din sotsiologiyasining fanlar tizimidagi o'rni
S7	Din sotsiologiyasi faning tadqiqot metodlari
S8	Din va boshqa sotsial institutlarning munosabati
S9	Din va stratifakatsion jarayonlar
S10	Milliy mentalitet va din
S11	Sekulyarizatsiya jarayonlari

S12	Zamonaviy o'zbek jamiyati hayotida din institutining o'rni
S13	O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan integratsiyalashuv jarayonida din omilining o'rni
S14	Din va ijtimoiy birdamlik nazariyasi
S15	Dinlararo bag'rikenglik va totuvlik jamiyat barqaror rivojining kafolati
S16	Globallashuv sharoitlarida din institute ahamiyatini oshishi
S17	Din ijtimoiy hodisa sifatida
S18	Din va san'at
S19	Diniy marosimlarning ijtimoiy hayotdagi roli.
S20	Dinshunoslik tadqiqot usullari

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular
"Ijtimoiy statistika" fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Din va diniy e'tiqod sotsiologik tahlil ob'ekti sifatida
2.	Din sotsiologiyasi shakillanishining shar-sharoitlari
3.	K.Marks tomonidan dinni radikal tanqid qilinishi va uning salbiy oqibatlari
4.	G'arbiy Yevropa sotsial tafakkurida dinga bo'lgan turli munosabatlar
5.	E.Dyurkgeymning din va sotsial birdamlik nazariyasi
6.	Din va integratsiya
7.	Din va ijtimoiy barqarorlik
8.	Din sotsiologiyasi va falsafasi
9.	Din hodisasini o'rganishda sotsiologik tadqiqot dasturi
10.	Din va siyosat
11.	Din va iqtisod
12.	Din va oila
13.	Diniy marosimlarning ijtimoiy hayotdagi roli.
14.	O'zbek milliy mentalitetida diniy xususiyatlar
16	Oygust Kont ta'limotida dinning o'rni
17	Jahon dinlari; xristianlik, islom, buddizm evolyutsion genezisi
18	Maks Veber tomonidan dinni jamiyat rivoji omili sifatida asoslanishi
19	Sekuliyarizatsiyaning ilk shakillari
20	Jahon dinlari; xristianlik, islom, buddizm evolyutsion genezisi
21	Dinning ijtimoiy, ahloqiy funksiyalarining jamiyat taraqqiyotiga ta'siri
22	Dinning ijtimoiy axloqiy funksiyalari
23	Din ijtimoiy hodisa sifatida
24	Muqaddas manbalar haqida ma'lmot
25	Maks Veber tomonidan dinni jamiyat rivoji omili sifatida asoslanishi
26	Din va oila

Din sotsiologiyasi fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Talabalarni Mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan mustaqil ishni bajarish ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.Unda talablar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarni amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek darslik va o'quv ko'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish .tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayerlash va boshqalar tavsiya etiladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • **"Din sotsiologiyasi"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba **"Din sotsiologiyasi"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnoligiyalari va metodlari:** ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; "KHWL" metodi; "SWOT" tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017. 2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017. 4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017. 5. Farfyev B.A « Din sotsiologiyasi ». O'quv qo'llanma, Toshkent islom

	universiteti nashriyoti. Toshkent-2018 6.M.Bekmurodov . « Sotsiologiya » T- 2001. 7. Farfiev B.A Tafakkur tarzi sotsiologiyasi. – Toshkent : « Universitet ». 2020 yil 8. Farfyev B.A « Din sotsiologiyasi ». O'quv qo'llanma, Toshkent islom universiteti nashriyoti. Toshkent-2018. **Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar** 1. Falsafa qomusiy lug'at. -Toshkent. : « O'zbekiston faylasuflar jamiyati ».2004 Shayz Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Toshkent. : « Sharq » birinchi, beshinchi va oltinchi juzlar. 2012 **Elektron ta'lim resurslari** 1. www.philosophy.ru. 2. http//www.intencia.ru. 3. http://www.anthropology.ru 4. http://www.filosofia.ru. 5. http://www.falsafa.dc.uz. 6. http://www.phenomen.ru. 7. http://www.lib.ru/FILOSOF. www. Ziyo net.uz.
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "24" 08 dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ul:** G.L.Barakayeva– Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi assistenti
9.	**Taqrizchilar:** Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, , Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi mudiri, I.Negmatov falsafa fanlari nomzodi, dotsent ,Viloyat Mahalla va olani qo'llab quvatlash boshqarmasi "Bandlikka ko'maklashish tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish " bo'lim boshlig'I sotsiologiya fanlari nomzodi Salimov Yu.G'

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais - Normamatova

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi mudir — **dots. I.Negmatov**

Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti,dekani — **prof. A.Aymatov**

SamDU o'quv ishlari Bo'yicha prorektor — **prof. A.Soleev**

SOTSIOLOGIYA VA IJTIMOIY ISH KAFEDRASIDA TAYYORLANGAN "IJTIMOIY STATISTIKA" FANI BO'YICHA TAYYORLANGAN FAN SILLABUSIGA

TAQRIZ

Talabalarning «Ijtimoiy statistika» fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy statistika kursini o'rganish umumiqtisodiy nazariya va matematikaning elementar tushunchalari to'g'risidagi bilimlarga asoslanadi. Statistika ijtimoiy tarmoqlarni, xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun zarurdir.

Ijtimoiy statistika statistikaning muhim tarkibiy elementi hisoblanib, ommaviy ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil qiladi. Natijada mazkur fan bo'yicha tizimli bilimlarga ega bo'lish; ijtimoiy hodisa va jarayonlar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lish; ijtimoiy statistika usullarini o'zlashtirish; aholi soni, tarkibi, harakati, ahol turmush darajasi, mehnat resurslari, ishsizlik kabi ijtimoiy hodisalar haqida tasavvurga ega bo'lish va tahlil eta olish; mamlakatimiz ijtimoiy ish sohasida ijtimoiy statistika sohasi bo'yicha yangi ilmiy natijalarga erishish va mavjudlarini esa takomillashtirish uchun bilim va ko'nikma ega bo'lish mumkin.

Taqdim etilayotgan fan sillabusida talabalarga ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlar to'g'risidagi axborotlarni olish, qayta ishlash va tahlil etish, ular bilan bog'liq qonuniyatlarni aniqlash borasida statistik tahlil usullarini egallash imkonini berish.

Ijtimoiy-iqtisodiy statistika kursi bo'lg'usi sotsiolog mutaxassislarni ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil etishda statistika usullaridan unumli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirib boradi.

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi mudiri dotsent — **I.Negmatov**

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
"SOTSIOLOGIYA VA IJTIMOIY ISH" KAFEDRASIDA
"DIN SOTSIOLOGIYASI" FANI BO'YICHA TAYYORLANGAN FAN SILLABUSIGA
TAQRIZ

Kishilik jamiyatining yaxlit tizim sifatida mavjud bo'lishi bevosita sotsial institutlarining bajarayotgan turli-tuman funksiyalariga bog'liqdir. Sotsial institutlar esa ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladilar va bunda bir-birlari bilan mustahkam aloqaga kirishadilar. Mazkur institutlar orasida din instituti o'zining munosib va salohiyatli o'rniga ega. Chunki din avvalambor, eng ko'hna va navqiron sotsial institut hisoblanib, u odamzot dunyoga kelganda beri mavjuddir. Suning uchun u har qanday jamiyat hayotida muhim ijtimoiy funksiyalarni bajarib kelgan va shunday maqomda qolmoqda.

Insonning dinga munosabati qanday bo'lishidan qa'tiy nazar, diniy e'tiqod ijtimoiy hayotda hamisha o'z o'rniga ega bo'lib kelgan. Jumladan, din ayrim jamiyatlarda davlat darajasida keskin tanqid qilinib, dindorlar shafqatsiz tarzda ta'qid qilib kelingan bo'lsa, boshqalarida esa din ulug'lanib, ijobiy tarzda ta'riflangan. Lekin bunday qarama-qarshi shakldagi yondashuvlardan qat'iy nazar din omili mutaxassislarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotini modernizatsiyalash maqsadida amalga oshrilayotgan keng qamrovli islohotlar va ular negizida kechayotgan ijtimoiy taraqqiyot hodisasi bir qator muhim omillarga tayyanar ekan, ular orasida dinning sotsial institut sifatida bajarayotgan ijtimoiy funksiyalari tufayli bu jarayonlarga ijobiy ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda jamiyatimizda kishilar diniy e'tiqodining ijtimoiy jarayonlarga ko'rsatayotgan faol ta'siri masalalari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb sotsial muammolarni din sotsiologiyasi mutaxassislari tomonidan o'ziga xos yondashuvlar hamda vositalar bilan hal qilinayotganligini e'tirof qilish mumkin. Shunday holatni ta'kidlash lozimki, bu ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlarini tadqiq etishda din sotsiologiyasi fani katta salohiyatga egadir. Chunki bu fan o'z ilmiy xulosalarini jamoatchilik fikrini bevosita, amaliy tarzda o'rganish orqali ilgari suradi.

Mazkur fanni o'qish jarayonida talabalar; dinning jamiyat hayotining turli davrlaridagi ijtimoiy ahamiyati va uni boshqa sotsial institutlar bilan o'zaro aloqadorligini o'rganish; din hodisasi bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarning ma'lum bir qonuniyatlar asosida kechishini puxta o'zlashtirish; din va diniy et'qod masalalarini sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilish; ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda dinning ma'naviy omil sifatidagi ahamiyatini sotsiologik tasniflash; zamonaviy jamiyat hayotidagi mavjud dolzarb muammolarni bartaraf etishda diniy e'tiqod omilini sotsiologik jihatlarida talqin etish; muayyan diniy hodisa va voqealarga kishilarning shaxsiy fikrlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar natijalarini mustaqil idrok etish; din va diniy e'tiqod masalalarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan amaliy sotsiologik tadqiqotlar natijalaridan foydalana olish; dunyovioy va diniy qadriyatlarning mushtarakligini chuqur anglash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Viloyat Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi "Hunarmandchilikka ko'maklashish, tadbirkorlik va ommaviy biznesni rivojlantirish" bo'limi boshlig'i, sotsiologiya fanlari nomzodi **Salimov Yu.G'.**